XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-53-219-9-129-K/22 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy budjetining 2023 yilgi daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24,25-moddalariga, Budjet Kodeksining 99-moddasiga, “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1024–sonli xatini inobatga olib, 2023-yilgi tuman mahalliy budjetini tasdiqlash hamda tuman mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida Xalq deputatlari Xovos tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman mahalliy budjetining daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2. Tuman mahalliy budjetining xarajatlarining umumiy prognozlari 2-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-14-ilovalariga muvofiq;

Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun)

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish xuquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq;;

avtotransport yig‘imlarning stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan (keyingi o‘rinlarda – Qonun) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

4. Qonunning 6-moddasiga asosan 2023 yil uchun tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 52 048,7 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. 2023-yil uchun tuman byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 900,4 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

6. Tuman (shahar)lar byudjetlarining 2023-yil uchun zahira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Tuman byudjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda tuman byudjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha xalq deputatlari viloyat hamda tuman Kengashlari tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman budjetiga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari

tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Viloyat budjetiga quyidagilar:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yokilg‘isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

boshqa daromadlar 100 foizi;

Foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi o‘tkazilishi belgilangan.

7. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, tuman aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

8. Qonunning 12-moddasiga asosan tuman budjetini barqarorligini ta'minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi tumanning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat'iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 9-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 10-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

11. .Minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdorlari 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin

12.Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

13. Tuman hokimligi tegishli budjetni birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmat xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

14. Tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritsin.

15. Tumanning tegishli budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Hamda tuman mahalliy budjeti qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

16. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Shadiev zimmasiga yuklatilsin.

17. Qaror 2023-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

18. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (B.Xudoyberdiev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **U.I. Kamolov**

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023 yil uchun Xovos tumani bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

Daromad turlari		Summa ming so‘m
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	8 931 371
2	Aylanmadan soliq	3 498 560
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig‘i	442 395
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 790 008
5	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	7 354 779
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 748 355
7	Ijara to‘lovlari	151 988
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	335 212
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1 007 016
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	938 408
JAMI		**29 198 092**
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i, alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**16 171 250**
	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	6 542 100

	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 806 180
	Tamaki mahsulotlari	6 822 970
JAMI DAROMAD		**45 369 342**

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
2-ilova

Xovos tuman mahalliy budjetining 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

(минг сўм)

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**45 369 342**	**97 418 026**
Xovos tumani	45 369 342	97 418 026

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**97 418 026**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	**55 506 133**
	Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pullari	**30 765 874,0**
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash	**768 923,0**
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	**6 476 687,0**
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlari	3 000 000,0
	Zahira jamg‘armasi	**900 409,0**
1	**Xalq ta'limi bo‘limi**	**6 542 726,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	6 542 726,0
2	**Maktabgacha ta'lim bo‘limi**	**8 608 298,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	8 608 298,0
3	**Sanitariya Epidemologik Osoyishtalik va Jamoat Salomatligi bo‘limi**	**1 615 888,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	1 615 888,0
4	**Madaniyat bo‘limi**	**4 730 308,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	*4 730 308,0*
	Madaniyat bo‘limi (apparat)	165 151,0
	Madaniyat bo‘limi	65 063,0
	Madaniyat markazlari (uyi)	764 863,0
	Axborot kutubxona markazi	463 732,0
	musiqa maktabi	3 271 499,0
5	**Sport bo‘limi**	**6 387 291,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	6 387 291,0

6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**512 354,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	512 354,0
7	**Tuman irrigatsiya bo‘limi**	**1 796 595,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	1 796 595,0
8	**Moliya bo‘limi**	**1 291 516,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	1 291 516,0
9	**Tuman veterinariya bo‘limi**	**1 094 139,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	1 094 139
10	**Bandlik va mexnat munosabatlari bo‘limi**	**855 453,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	855 453,0
11	**Yoshlar ishlari agentligi**	**2 713 587,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	2 713 587,0
12	**Fermer xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	**963 595,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	963 595,0
13	**Tuman hokimligi**	**46 866 394**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar	**7 840 920**
	Tuman hokimligini saqlash xarajatlari	2 984 807,0
	Maxallabay ishlash markazi	2 710 648,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	212 326,0
	Tuman Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	131 649,0
	Oila va xotin qizlar bo'limi	1 668 819,0
	Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pullari	30 765 874,0
	Zahira jamg‘armasi	900 409,0
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash	768 923,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	6 476 687,0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	113 581
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi	19 090,0
14	**Obodonlashtirish bo‘limini saqlash xarajatlari**	**10 453 640,0**

	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	7 453 640,0
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlari	3 000 000,0
15	**Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limini saqlash xarajatlari**	**3 099 823,0**
	shu jumladan;	
	joriy xarajatlar:	3 099 823,0
	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasini saqlash xarajatlari	689 270,0
	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saklash xarajatlari	2 410 553,0

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
4-ilova

Xovos tuman mahalliy budjetining 2023 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**52 048 684**
shundan	
Xovos tumani	52 048 684

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
5-ilova

2023 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda
			boshqa aholi punktlari
1	**Uy-joylar:**		
	turar joy	umumiy maydonning	4500
	noturar joy	1 kv.metri uchun	8300
2	**Avtomobil transporti:**		
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	695000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1375000

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
6-ilova

2023 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)
	boshqa aholi punktlari
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	300 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	150 000

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
7-ilova

2023 yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlarning stavkalari

№	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda va tranzitda harakatlanishi uchun yig‘imlar**	AQSH dollarida
1	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda va tranzitda harakatlanishi uchun yig‘im, bitta avtomobil tashuvchi uchun (2-5 bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtomashinalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtomashinalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtomashinalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtomashinalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
6	Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	150
7	Afg‘oniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	50

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab chet davlatlarning og‘ir vazinli va yirik gabaritli yuk avtotransport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.
2.O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig‘im undiriladi.
3.Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llaniladi.
4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
8-ilova

2023 yilda umumdavlat soliqlaridan Xovos tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me'yori

T/R	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar'ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Ijara to‘lovi
1	Xovos tumani	100,0%	100,0%	20,0%	100,0%	100,0%	10,0%	100,0%	10,0%	100,0%	100,0%

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (1 ga uchun)
1	Bunyodkor MFY	1,0	24 000,0
2	Chamanzor MFY	1,0	24 000,0
3	Istiqlol MFY	1,0	24 000,0
4	Yangier MFY	1,0	24 000,0
5	Paxtakor MFY	0,7	16 800,0
6	Tinchlik MFY	1,0	24 000,0
7	Do‘stlik MFY	1,0	24 000,0
8	Mustaqillikning 25 yilligi MFY	0,8	19 200,0
9	Qoraqum MFY	0,8	19 200,0
10	Gulbahor MFY	1,0	24 000,0
11	Obod turmush MFY	0,8	19 200,0
12	Sharqobod MFY	0,8	19 200,0
13	Sohibkor MFY	0,9	21 600,0
14	Farxod MFY	0,8	19 200,0
15	Nurli kelajak MFY	0,8	19 200,0
16	Qayirma MFY	0,8	19 200,0
17	Afrosiyob MFY	0,8	19 200,0
18	Karvonsaroy MFY	0,9	21 600,0
19	Mustaqillik MFY	0,8	19 200,0
20	Oqchangal MFY	0,8	19 200,0
21	O‘zbekiston to‘kinchiligi MFY	0,8	19 200,0
22	Xovosobod MFY	0,9	21 600,0
23	Yettiguzar MFY	0,9	21 600,0
24	Binokor MFY	0,7	16 800,0
25	Bo‘ston MFY	0,7	16 800,0
26	Qaxramon MFY	0,7	16 800,0
27	Husniobod MFY	0,7	16 800,0

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
10-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘m)
1	Bunyodkor MFY	1,0	192,1
2	Chamanzor MFY	1,0	192,1
3	Istiqlol MFY	1,0	192,1
4	Yangier MFY	0,8	153,7
5	Paxtakor MFY	0,7	134,5
6	Tinchlik MFY	1,0	192,1
7	Do‘stlik MFY	1,0	192,1
8	Mustaqillikning 25 yilligi MFY	0,8	144,1
9	Qoraqum MFY	0,8	144,1
10	Gulbahor MFY	0,9	172,9
11	Obod turmush MFY	0,8	144,1
12	Sharqobod MFY	0,9	172,9
13	Sohibkor MFY	0,8	153,7
14	Farxod MFY	0,7	134,5
15	Nurli kelajak MFY	0,8	144,1
16	Qayirma MFY	0,7	134,5
17	Afrosiyob MFY	0,7	134,5
18	Karvonsaroy MFY	0,9	172,9
19	Mustaqillik MFY	0,8	144,1
20	Oqchangal MFY	0,8	153,7
21	O‘zbekiston to‘kinchiligi MFY	0,8	153,7
22	Xovosobod MFY	0,9	172,9
23	Yettiguzar MFY	0,9	172,9
24	Binokor MFY	0,7	134,5
25	Bo‘ston MFY	0,7	134,5

26	Qaxramon MFY	0,7	134,5
27	Husniobod MFY	0,7	134,5

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
11-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2023 yil uchun (so‘m)
1	Xovos tumani	0,6	500 000

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
12-ilova

2023 yilda Xovos tuman mahalliy budjetining zahira jamg‘armasi miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Zahira jamg‘armalari miqdori
	JAMI	**900 409,0**
	shundan	
1	Xovos tumani	**900 409,0**

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
13-ilova

Tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**571 265,0**
	shundan	
1	Xovos tumani	**571 265,0**

Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-219-9-129-K/22-son qaroriga
14-ilova

Mahalliy byudjetdagi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ajratilgan mablag‘larga kiritilgan o‘zgarishlar to‘g‘risida
MA'LUMOT

ming so‘mda

№	Tashkilot nomi	Tashkilot INN	Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchining nomi	2023 yil tasdiqlangan reja sessiyaga taqsimlovchilarga			Жами ҳудуд бўйича	
1	**Tuman budjeti**	**X**	**Tuman budjeti**	**97 418 026**				
1		**X**	**Xalq ta'limi bo‘limi jami**	**6 542 727**				
1	Xalq ta'limi bo‘limi (aparat)	200970180	10002286024235709630007500 5	2 850 551				
2	Barkamol avlod bolalar maktabi	200970180	10002286024235709610007500 9	640 952				
3	Umumta'lim maktablari	200970180	10002286024235709210007503 4	3 051 223				
2			**Maktabgacha ta'limi bo‘limi**	**8 608 298**				
1	Maktabgacha ta'limi bo‘limi (aparat)	305157590	10002286024235709860225100 2	523 260				
2	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari	305157590	10002286024235709110025101 5	8 085 038				
3			**Sog‘liqni saqlash**	**1 615 888**				
1	Sanitariya Epidemologik Osoyishtalik va Jamoat Salomatligi bo‘limi	200970134	10002286024235707411005400 1	1 615 888				
4			**Madaniyat bo‘limi**	**4 730 308**				
1	Madaniyat bo‘limi (aparat)	200970269	10002286024235708920005600 1	165 151				
2	Madaniyat bo‘limi ashula va raqs ansanbli	200970269	10002286024235708940005600 1	65 063				
3	Madaniyat markazlari (uyi)	200970269	10002286024235708231005600 1	764 863				
4	Axborot kutubxona markazi	306674462	10002286024235708210213400 1	463 732				
5	14-musiqa maktabi	200970158	10002286024235709660005600 1	2 088 889				
6	15-musiqa maktabi	304324527	10002286024235709660005600 2	1 182 611				
5			**Sport maktabi**	**6 387 291**				
1	1-son sport maktabi	207139281	10002286024235708361013500 1	3 193 646				
2	2-son sport maktabi	307832264	10002286024235708361013500 3	3 193 646				
6			**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**512 354**				
1	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	202194100	10002286024235704296008200 1	512 354				
7			**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 796 595**				
1	Irrigatsiya bo‘limi	305086696	10002286024235704240217000 1	1 796 595				
8			**Moliya bo‘limi**	**1 291 516**				
1	Moliya bo‘limi asosiy	200970252	10002286024235701131209200 4	1 291 516				
9			**Veterinariya bo‘limi**	**1 094 139**				
1	Tuman veterinariya bo‘limi	200970173	10002286024235704213325000 1	1 094 139				
10			**Bandlik va mexnat munosabatlari bo‘limi**	**855 453**				
1	Bandlik va mexnat munosabatlari bo‘limi	200970284	10002286024235710912014100 1	855 453				
11			**Maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi**	**3 479 571**				
1	Maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	200970355	10002286024235701120901800 1	2 710 648				
2	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash	200970355	10002286024235704999701800 1	768 923				
12			**Tuman hokimligi**	**10 838 549**				
1	Tuman hokimligi	200970355	10002286024235701120401800 1	2 984 807				
2	Tuman Xalq qabulxonasi	200970355	10002286024235701120501800 1	131 649				
3	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	207332565	10002286024235701190334000 1	212 326				

4	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	200970355	10002286024235710940101800 1	113 581
5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi	200970355	10002286024235710930001800 1	19 090
6	Zahira jamg‘armasi	200970355	10002286024235701150301800 3	900 409
7	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	200970355	10002286024235701990901800 3	6 476 687
13			**Yoshlar ishlari agentligi**	**2 713 587**
1	Yoshlar ishlari agentligi	309218116	10002286024235704999622500 1	2 713 587
14			**Tuman Oila va xotin qizlar bo'limi**	**1 668 819**
1	Tuman Oila va xotin qizlar bo'limi	200970355	10002286024235708540002600 2	1 668 819
15			**Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo'limi**	**3 099 823**
1	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo'limi (aparat)	207317962	10002286024235701190625900 2	689 270
2	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari MFY	207317962	10002286024235701140225900 1	2 410 553
16		**X**	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10 453 640**
1	Daydi itlarni ovlash brigadasi	206946284	10002286024235704299011000 1	114 918
2	Drenajlarni saqlash va ta'mirlash	206946284	10002286024235706290211000 1	440 582
3	Ko'cha yoritgichlari	206946284	10002286024235706420011000 1	236 313
4	Obodonlashtirish boshqarmasi (apparat)	206946284	10002286024235706520011000 1	5 892 390
5	Qabristonlarni saqlash	206946284	10002286024235706540011000 1	769 437
6	Ichki yo'llarni ta'mirlash	206946284	10002286024235704520411000 1	3 000 000
17			**Fermer xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	**963 595**
1	Tuman fermer xo‘jaliklari buxgalteriya markazi	305723243	10002286024235704211608200 1	963 595
18			**Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa**	**30 765 874**
1	Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa	200970252	10002286024235710310001804 5	30 142 356
2	Moddiy yordam	200970252	10002286024235710330001804 3	623 518